

Mamadjanova Nozima Adxamovna

Namangan davlat universiteti

pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

mamadjanovanozima@gmail.com

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILARNING ANALITIK TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda boshlang'ich ta'lim bosqichida o'quvchilarning analitik tafakkurini shakllantirish va rivojlantirish jarayonining ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Analitik tafakkur bu o'quvchining voqea-hodisalarni tahlil qilish, solishtirish, umumlashtirish va xulosalash qobiliyatidir. Tadqiqotda analitik tafakkurning mazmuni, uning psixologik-pedagogik mohiyati hamda boshlang'ich sinf o'quvchilarining yosh xususiyatlariga mos rivojlantirish omillari tahlil qilingan. Shuningdek, ta'lim jarayonida o'yin texnologiyalari, muammoli vaziyatlar va interfaol metodlardan foydalanishning samaradorligi asoslab berilgan. Natijada o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va xulosaga kelish malakalari shakllanishi uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: analitik tafakkur, boshlang'ich ta'lim, tafakkur rivoji, mantiqiy fikrlash, interfaol metodlar, pedagogik texnologiyalar.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL FOUNDATIONS FOR DEVELOPING ANALYTICAL THINKING IN PRIMARY EDUCATION STUDENTS

Annotation. This study explores the scientific and theoretical foundations of developing analytical thinking among primary school students. Analytical thinking is defined as the ability to analyze, compare, generalize, and draw logical conclusions from information. The research examines the psychological and pedagogical essence of analytical thinking, the factors influencing its development, and effective teaching strategies. The importance of using interactive methods, problem-based learning, and creative tasks in the educational process is emphasized. Based on the findings, methodological recommendations are proposed to enhance students' independent thinking and logical reasoning skills.

Keywords: analytical thinking, primary education, cognitive development, logical reasoning, interactive methods, pedagogical technologies.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотация. В статье раскрываются научно-теоретические основы развития аналитического мышления у учащихся начальных классов. Аналитическое мышление рассматривается как способность анализировать информацию, сравнивать, обобщать и делать логические выводы. В исследовании изучены психолого-педагогическая сущность аналитического мышления, факторы, влияющие на его развитие, а также эффективные методы обучения. Подчеркивается значимость использования интерактивных методов, проблемных ситуаций и творческих заданий в учебном процессе. В результате предложены методические рекомендации по формированию у учащихся навыков самостоятельного и логического мышления.

Ключевые слова: аналитическое мышление, начальное образование, развитие мышления, логическое рассуждение, интерактивные методы, педагогические технологии.

XXI asrda dunyoning rivojlangan davlatlarida ta'lim mazmunini modernizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida ta'limda avvalo tasavvur konikmalarini rivojlantirishda

zamonaviy yondashuvni joriy etish masalasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda. Zamonaviy yondashuvlardan biri bo'lgan kommunikativ yondashuv o'quvchilarning maktabda olgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayoti davomida ijtimoiy hamda turli vaziyatlarda amaliy qo'llay olish layoqatini anglatadi. O'quvchi til qoidasini yaxshi o'zlashtirib olgan bo'lsada, biroq chet tilda gapirish, o'z fikrini suhbatdoshi e'tiboriga erkin havola qilish malakasi yetishmasligi mumkin. Bu jarayonda til o'rganuvchilarning faqat lisoniy salohiyatini shakllantirish emas, balki muloqot kompetensiyasini shakllantirish maqsadga muvofiqdir.

O'quv materialida keltirilgan axborot o'quvchilarga turli didaktik o'yinlar vositasida shakllantirilsa, ular ushbu jarayonga xolisona munosabati, dunyoqarashi, o'z fikrini erkin bildirishi va turli kutilmagan vaziyatlarda o'zini boshqara olishi, ushbu vaziyatga mos jumla va so'zlarni qo'llash imkoniyati yaratiladi [2].

Bugunga kelib butun dunyoda bo'layotgan kabi, O'zbekistonda ham ta'limni modernizatsiyalash, isloh qilish jarayonlari jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Bu esa xalq ta'limi tizimi sohasida ijobiy o'zgarishlarga, ta'lim sifatini yaxshilashga, zamonaviy texnologiyalardan foydalanishga xizmat qiladi. Bugungi kunda ta'lim sohasiga oid qabul qilinayotgan dastur va qarorlarda, boshlang'ich ta'lim chet til o'qituvchilari oldiga yangi maqsad va vazifalarni qo'yilayotgani, o'quvchilarning chet tillardan birini mukammal o'zlashtirishi, ularning kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda kommunikativ va didaktik o'yinlarning o'quv jarayonidagi roli va ahamiyati, ulardan maqsadli foydalanish muhim ekanligi ta'kidlanib kelinmoqda.

Dunyoda innovatsion yondashuvlar asosida talabalarning tanqidiy fikrlash layoqatini mustahkamlash, intellektual salohiyatini oshirish, ma'naviy-mafkuraviy immunitetini kuchaytirish, axborotlar bilan ishlash malakasini qaror toptirishga doir olib borilayotgan ilmiy-tadqiqotlar ko'lamini tobora ortib bormoqda. Ayniqsa, yetuk malakali mutaxassislar tayyorlashni xalqaro tendensiyalarga muvofiqlashtirishda talabalarning tasavvuriy tafakkurini takomillashtirish masalasi ustuvorlik kasb etmoqda. Xususan, filologik ta'lim yo'nalishlarida tahsil olayotgan talabalarning analitik tafakkurini takomillashtirish ularda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning intellektual asosi, badiiy asarlardagi eksplitsit va implitsit ma'no qatlamlarini kashf etishga o'rgatishning eruditsion omili ekanligi bilan xarakterlanadi.

Ilmu fanning rivojlanishi natijasida tafakkur deb atalmish ruhiy-intellektual hodisa ham bir tarkibli emasligi ma'lum bo'lyapti. Chunonchi, fikrlash mustaqil fikrlashdan, tasavvuriy tafakkur esa tafakkurning barcha boshqa ko'rinishlaridan farq qilishi ilmiy asoslanib borilmoqda[5]. Tafakkur ko'rinishlari orasida shaxs eruditsiyasi va intellektini oshirish borasida samaradorligi bilan alohida ajralib turuvchi turi – analitik tafakkur hisoblanadi. Chunki analitik tafakkur o'rganilayotgan obyektga turli tarafdin yondashish, uning ichki va tashqi aloqalarini kompleks holda tekshirish va to'xtamga kelishni taqozo etadi. Qadim zamonlardan bunday tafakkur egalari alohida qadrlanganlar. Bunday fikrlay oladigan shaxslar antik Yunonistonda analitiklar deb nomlanganlar. Shundan beri fikrlashning o'ziga xos murakkab turi – analitika nomi bilan yuritib kelinadi.

Analitik tafakkur egasida masalaning asl mohiyatini anglash, uning sabab-oqibatlarini tushunish, kerakli qarorga kela bilish qobiliyati bo'ladi. Shu bois bunday fikrlaydigan odamlar olam hodisalari va odamning hatti-harakatlari yuzasidan xolis, atroflicha va haqqoniy xulosa chiqara biladilar. Analitik tafakkur yangi axborot izlab topish, uni o'rganish va tizimga solish, olingan ma'lumotlar asosida to'g'ri to'xtamga kelish imkonini beradi. Analitik tafakkur yuritishda: a) axborotni belgilash, atroflicha o'rganish; b) axborotni muayyan qismlarga ajratish; v) ma'lumotlarni taqqoslab ular o'rtasidagi bog'liqlikni topish; g) axborotni xolis baholash; d) mantiqiy fikrlash; ye) fikrni izchillik bilan to'g'ri bayon etish; yo) fikrlayotganda faqat dalillarga tayanish; j) axborotlarning muhimini nomuhimidan ajrata bilish; z) mavjud axborotga tanqidiy qaray bilish; i) muqobil yechimlar bo'lishi mumkinligini hisobga olish; y) xulosa chiqarish kabi fikriy operatsiyalar bajariladi.

Aytilganlardan kelib chiqib, o'rganilayotgan muammo yuzasidan aniq dalil bo'ladigan ko'p miqdordagi axborotlarni to'plab, masalaga turli tomondan yondashib, uning mayda jihatlarini

ham nazardan qochirmagan holda mavjud dalillarni tahlil qilish orqali eng to'g'ri yechimni tez va aniq topishga qaratilgan aqliy jarayon analitik tafakkurdir yo'sinida ta'rif berish mumkin[6]. Yaxshi rivojlangan analitik tafakkur har qanday chigal muammoning ham eng samarali va foydali bir necha yechimini tezkorlik bilan topa biladi. Bunday fikrlay oladigan odamda har qanday muammo yuzasidan ko'p taraflama o'ylangan asosli to'xtam, o'z faoliyatini rejalashtirish va natijasini ko'ra bilish qobiliyati bo'ladi. Analitik tafakkurga ega bo'lish, umuman, pedagogik amaliyotda, xususan, adabiyot o'qitishda alohida ahamiyat kasb etadi. Badiiy asardagi so'zni, tasvirni, ifodani har bir retsiyent o'zicha qabul qiladi, o'zicha ta'sirlanadi va o'zicha tushunadi. Bir subyekt, ya'ni yozuvchining obyektiv olam haqidagi subyektiv qarashlari ifodasi bo'lmish asarni subyektiv qabul qiladigan kitobxon fikrlarida imkon boricha obyektiv xolislik, asoslanganlik, isbotlanganlik bo'lishi uning aqliy, axloqiy rivojida hal qiluvchi ahamiyatga ega[4]. O'quvchilarning fikrlarida xolislik, asoslanganlik bo'lishiga erishishda ularni analitik tafakkurga o'rgatish katta o'rin tutadi. O'quvchi yoshlarda ana shunday tafakkur qobiliyatini tarkib toptirish kerak bo'lgan filolog o'qituvchilarning o'zida analitik tafakkurni shakllantirish yo'llarini tadqiq etish shu sababi ham o'ta dolzarb ilmiy-pedagogik muammodir.

Analitik tafakkur – tahliliy fikr yuritish san'ati, biror muammo, masala, axborot, voqea-hodisani o'rganish jarayonida u haqda atroflicha, aniq, teran, chuqur, mazmundor, mustahkam to'xtamga kelish qobiliyatidir. Analitik tafakkur egasi tahlil qilinayotgan obyektni har tomonlama sinchiklab o'rganadi: murakkab axborotlarni qismlarga ajratadi – har bir so'z, jumla, detal, narsa ustida jiddiy fikr yuritadi, qismlarni o'zaro mantiqiy bog'laydi, maqbul xulosaga keladi va kerakli qarorlar qabul qiladi. Analitik qobiliyat egasi har qanday hodisa ustida fikr yuritganda narsa-hodisaning tashqi ma'nosini uqish bilangina cheklanmay, uning ichki – botiniy ma'no qatlamlarini ham aniqlashga urinadi. Natijada tahlil etilayotgan obyekt yuzasidan atroflicha tushuncha yuzaga keladi. Analitik tafakkur muammo yoki masalaning oson va tez, to'g'ri va aniq hal etilishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Analitik tafakkur yuritadigan odam muammo paydo bo'lganda avval har tomonlama fikr yuritadi: muammoning yuzaga kelishi sabablarini, uni bartaraf etish yo'llarini tahlil etadi. Analitik tafakkur egasi muammodan qochmaydi, balki uni oqilona hal qilishga intiladi.

Yuqorida berilgan ta'riflar, munosabatlarni umushlashtirib, analitik tafakkur tushunchasi belgilarini quyidagicha izohlash mumkin bo'ladi:

- analitik tafakkur fikrlashning mantiq bilan qat'iy bog'langan, predmetni aniq, to'g'ri, obyektiv, har tomonlama tahlil etishga qaratilgan aqliy faoliyat turi, ta'lim jarayonida bilimlarni o'zlashtirishning mustahkam asosi;

- analitik tafakkur – ijtimoiy hayotining hamma sohalari bo'yicha tahlil qilish, munosabat bildirish, o'tmishni anglash, bugunni idrok etish, kelajakni bashorat qilish, taraqqiyotning istiqbolli yo'llarini belgilash imkonini beradigan sermahsul fikrlash yo'sini, ta'lim tizimida uzviylik, izchillikni ta'minlashning muhim manbai;

- analitik tafakkur insonni innovatsion g'oyalarni ilgari surish, yangi texnologiyalarni yaratish, amaliyotga tatbiq etishga undaydigan yaratuvchan fikrlash tarzidir. Ta'lim jarayonida yoshlarni ijtimoiy faollashuvga tayyorlashning intensiv yo'li;

- ta'lim tizimida talabalarda analitik tafakkur qobiliyatini rivojlantirish – bu mustaqil fikrlaydigan, har qanday muammoga tezlik bilan oqilona yechim topa biladigan, fikriy qaramlikdan yiroq barkamol avlod tarbiyalash imkonini beradi. Analitik tafakkur kishiga odam va olamni idrok etish quvvatini beradigan, uning fikrlash mexanizmini ratsional harakatga keltiradigan aql generatoridir. Xo'sh, talabalarda analitik tafakkur qobiliyatini shakllantirish oliy adabiy ta'limga nima beradi? Talabalar analitik tafakkur ko'nikmasiga, qobiliyatiga ega bo'lsa, nima o'zgaradi? Ma'lumki, har qanday mamlakat o'zining yuksak tafakkurga ega kishilari bilan qudratlidir. Tafakkuri taraqqiy etmagan millatning tanazzulga yuz tutishi tarixdan ma'lum. Oliy adabiy ta'limda analitik tafakkurni rivojlantirishga e'tibor qaratish bo'lajak filologlarni analitik fikrlaydigan qilish orqali butun jamiyat a'zolarini teran va har taraflama fikrlay oladigan holatga keltirishga sabab bo'ladi.

Mamlakatimiz oliy ta'limi oldida bo'lajak mutaxassislarning professional tayyorgarligi va intellektual saviyasini xalqaro tendensiyalarga muvofiq lashtirish vazifasi turibdi. Bunday darajaga esa faqat talabalarni analitik tafakkur qilishga o'rgatish orqaligina erishiladi. Jumladan, filolog olim yoki filolog pedagogning kasbiy tayyorgarlik darajasini ko'tarishning asosi unda analitik tafakkur layoqatini shakllantirishdadir. Analitik tafakkur qila biladigan shaxsgina kasbiy kompetentlikka ega mutaxassis bo'la oladi. Chunki bunday filolog badiiy asarni shunchaki qabul qilmaydi, balki uning asl qimmat, tarbiyaviy ahamiyati, millat estetik didini shakllantirishdagi o'rni, milliy va jahon adabiyoti rivojiga ta'siri, eng muhimi, bu badiiy asarning yosh avlod ma'naviyatida ezgu sifatlar tarkib toptirish imkoniyati qandayligini bexato ko'ra biladi, adbiyot darslariga tafakkuriy ruh bera oladi[6].

Analitik tafakkur asosiga qurilgan adabiyot darslari o'quvchilarda kitobga o'zgacha mehr uyg'otadi, badiiy asar o'qishga kuchli qiziqish, ehtiyoj hosil qiladi, kitobxonlik madaniyatini shakllantiradi. Deni Didro: "Odamlar kitob o'qishdan to'xtasalar, fikrlashdan ham to'xtaydilar" [10]– deydi. Ammo duch kelgan badiiy kitobni shunchaki o'qishning o'zi foyda bermaydi. Kitob fikrlab o'qilgandagina kishiga manfaat keltiradi. Bu o'rinda, ingliz siyosatshunosi E.Berkning: "Mushohada yuritmasdan o'qish ovqat hazm qilmaslik bilan barobar", mashhur rus pedagogi K.D. Ushinskiyning: "O'qish – bu hali hech nimani anglatmaydi, o'qish va shu o'qilganni uqish – asosiy gap mana shunda" – degan hikmatlari aytilganlarga quvvat beradi.

Badiiy asarlarni uqib o'qishga o'rgatish maktab adabiy ta'limidan boshlanadi. Oliy adabiy ta'limda esa talabalarning kitobxonlik madaniyati ilmiy-pedagogik asosda yanada yuksaltirilib, professionalizm darajasiga ko'tarilishi kerak. Analitik fikrlaydigan talaba badiiy asarni qanday o'qib, qanday tushunishnigina emas, balki adabiy matn bilan amalga oshiriladigan barcha intellektual-estetik amallarni bajarish yo'llarini ham egallagan bo'ladi[9]. O'zining kelajakdagi pedagogik yoki tadqiqotchilik faoliyatida o'quvchilari yoki retsepiyentlarini badiiy adabiyot olamiga olib kirib, ularga badiiy asarlardan ma'rifiy quvvat olish, ma'naviy tarbiya topish, estetik oziqlanish yo'llarini o'rgata biladi. Shunga erishgan filolog ta'lim va tarbiyasini olgan o'quvchi hamda talabaning mustaqil fikrlashi tez rivojlanadi, tanqidiy tafakkur yuritish layoqati mustahkamlanadi, badiiy so'zni his qiladigan, o'qigan badiiy asarini tahlil eta biladigan, undan hayotiy xulosalar chiqarishga qodir bilimli shaxsga aylanadi[4].

Yunon faylasufi Demokrit: "Bilishning ikki ko'rinishi mavjud. Ularning biri – tuyg'ular vositasida bilish, ikkinchisi tafakkur ila bilishdir"– deb ta'kidlaydi. Adabiy ta'lim o'quvchi va talabalarning bilish darajasini ham tuyg'ular, ham tafakkur vositasida yuksaltirishga xizmat qiladi. Alisher Navoiyning "Xamsa", Cho'lponning "Go'zal", "Buzilgan o'lka", Hamid Olimjonning "O'rik gullaganda", Erkin Vohidovning "O'zbekim", Abdulla Oripovning "O'zbekiston", Halima Xudoyberdiyevaning "Begim sizni tabiat", Muhammad Yusufning "Vatanim" kabi nazmiy asarlarini; Qodiriyning "O'tkan kunlar", Odil Yoqubovning "Ulug'bek xazinasini", Shukur Xolmirzayevning "O'zbeklar", O'tkir Hoshimovning "Dunyoning ishlari", Tog'ay Murodning "Yulduzlar mangu yonadi" kabi juda ko'p asarlari talabalarning tafakkur va tuyg'ulariga birvarakayiga ta'sir ko'rsatadi[10].

Haqiqiy badiiy asar kitobxonni tuyg'ulantirish, hislarini harakatga keltirish orqali bilimini oshiradi. Tuyg'ulanish, bilimlanish tafakkur qilishga turtki bo'ladi. To'liq idrok etilmagan badiiy asar na tuyg'uga va na tafakkurga ta'sir qiladi.

Analitik tafakkur jarayonida badiiy so'zning ma'no qirralari kengroq idrok etiladi. E.Vohidovning "O'zbekim" qasidasidagi birgina "Ko'hna tarix shodasida Bitta marjon, o'zbekim" misrasini analitik yondashuv asosida tahlil qilish kishidan bir dunyo bilim va tuyg'ular qo'zg'alishini talab qiladi. Shu misradagi "tarix shodasi" ifodasi analitik tahlil qilinganda yer yuzida insoniyat paydo bo'lganidan boshlab to shu kunga qadar bosib o'tilgan murakkab tarixiy yo'l, voqealar, shaxslar, urushlar, taraqqiyot, tanazzul idrok etiladi. Misradagi "marjon" ifodasi "o'zbekim"ning insoniyat sivilizatsiyasining uzviy bir bo'lagi bo'lib, tutgan o'rni qadimiy va yuksak ekanidan, jahon madaniyatini rivojlantirgan ilg'or xalqlardan bo'lganidan xabar beradi. Bunday analitik xulosalar o'quvchining bilim darajasini oshiribgina qolmay, tuyg'ularini harakatga keltirib, qalbga iftixor tuyg'usini soladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Saidnazarova G. Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy madaniyatini shakllantirishning pedagogik asoslari// Олий ҳамда кадрлар малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш таълим турлари орасида интеграциялашнинг дидактик асослари// Республика илмий-назарий конференция материаллари// 2019 йил 26-27 апрел// Бухоро// 2019
2. Рубинштейн, С.Л. Избранные философско-психологические труды: основы онтологии, логики и психологии / Ин-т психологии РАН.
3. Richard J. Hauer Jr. Psychology of Intelligence analysis. Jr, published by Center for the Study of Intelligence, 1999. ISBN 1 929 667-00-0.
4. Rust J. Searle's Institutional Atomism // Rust J. John Searle and The Construction of Social Reality. – London, 2006. – P. 9-36.
5. URL:<http://khorezmscience.uz/web/archive/1621255365.pdf>
6. Jalilovich A. J. Masofaviy ta'limda mobil ilovalardan foydalanish // "Amaliy matematika va axborot texnologiyalarining zamonaviy muammolari" xalqaro miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman materiallari. – 2021. – B. 637-639.
7. Atamuradov J. The main didactic principles of teaching informatics:
8. ЖЖ Атамурадов. Центр Научных Публикаций (buxdu. uz). 2020;1(1).